

## BIZ IMOM BUXORIY AVLODLARIMIZ

*Hikmatov Faxrullo Fatulloyevich,*

*O'zXIA Islomshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasi, qolaversa, Movarounnahrda yetishib chiqqan muhaddislar imomi Imom Buxoriy va u kishining tutgan yo'llari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** farzand tarbiyasi, Qur'on, hadis, ilm, Qur'on tilovati, odob va oila.

**Krish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli qarori asosida Qur'oni Karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o'zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish Hadis ilmi maktabining asosiy vazifalaridan etib belgilandi. [1]

Kishi o'z farzandlarini ularning go'daklik chog'laridan boshlab tarbiyalashi, odob berishi lozim. Ma'lum yoshga yetgach, ba'zi narsalarni bolaga qabul qildirish qiyin bo'ladi. Oila boshlig'i oila a'zolarining ba'zi ayblarini kechirishi, ularni qo'rqitib tarbiyalashdan ko'ra kechirib yuborish yo'li bilan tarbiyalashi kerak. Islom dinida farzand tarbiyasi ibodat darajasidagi amallar qatoriga kiradi. Shu sababli donishmand otabobolarimiz, oqila onalarimiz farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelganlar. Shunday ekan biz ham farzandlarimizga tarbiya berishga katta ahamiyat berishimiz kerak. Yaxshi tarbiyaga ega bo'lgan farzand imonli, e'tiqodli, Allohdan qo'rqaqadigan, otasonasiga itoatli va doimo to'g'ri yo'ldan adashmaydigan farzandlardan bo'ladi. Quyida shunday tarbiya ko'rib, katta-yu kichikka o'rnak bo'la olgan Imom Buxoriy hazratlari haqida va shu darjaga yetishlariga onalarining hissalarini qanday bo'ganligi haqida gaplashamiz.

**Asosiy qism.** Alloh subhonahu va taolo birinchi hijriy asrda Movarounnahr diyorini O‘zining oxirgi va mukammal dini Islom nuri bilan munavvar qildi. Bu diyor ahlining ko‘pchiligi Islomni ochiq qalb bilan qabul qildi. Ularning Islomi go‘zal bo‘ldi. Zotan Alloh taoloning O‘zi bu diyor odamlarini ularga bergan ajoyib tabiat va qobiliyatlarga mos va ularning rivojiga omil bo‘luvchi qiyomatgacha boqiy qoluvchi dini Islomga hidoyat qilgan edi. Movarounnahr aholisining Islom diniga kirishi ularning ko‘plab qobiliyatlarining ochilishiga, hayotning ko‘plab jahbalarida o‘zlarining peshqadamliklarini isbotlashga olib keldi. Movarounnahr diyorridan o‘sha vaqtida mavjud bo‘lgan barcha ilmlar bo‘yicha yetuk allomalar chiqibgina qolmasdan, balki bir qancha yangi ilmlarga asos solgan ulug‘ zotlar yetishib chiqdilar. Ushbu holatning o‘zi Movarounnahr aholisining insoniyat tarixiga, ilm, fan, madaniyat rivoji tarixiga kirishiga Allohnинг qiyomatgacha boqiy dini Islom sabab bo‘lganining yorqin dalilidir.

Abu Dardo (r.a.)dan rivoyat qilinadi. U kishi “Rasululloh (s.a.v.)ning: **“Kim ilm talab qilish yo‘lida yursa, Alloh unga jannat yo‘lini oson qilib qo‘yadi. Albatta, farishtalar tolibi ilmni rozi qilish uchun qanotlarini qo‘yadilar. Albatta, olimga osmondagи zotlar, yerdagi zotlar hatto suvdagi baliqlar ham istig‘for aytadilar. Olimning obitdan farqi xuddi oyning boshqa yulduzlardan farqiga o‘xshaydi. Albatta, olimlar anbiyolarning merosxo‘rlaridir. Albatta, anbiyolar dinorni ham, dirhamni ham meros qoldirmaganlar. Albatta, ular ilmni meros qoldirganlar. Kim o‘shani olsa, ulug‘ nasibani olibdi”**, deganlarini eshitdim” degan ekanlar [3; 102-b].

Shunday ulug‘ nasiba olgan insonlardan biri bo‘lgan Movarounnahrda yetishib chiqqan Allohnинг kalomi Qur’oni Karimdan keyingi manba bo‘lgan Sahih Buxoriyning muallifi, muhaddislar imomi Imom Muhammad Ismoil al-Buxoriyidir. Imom Buxoriyning shunday olim bo‘lib yetishishida ota-onasining ulkan xizmatlari, uzoq yillik mashaqqatlari mujassamdir. Imom Buxoriyning (810-870) otasi Ismoil ibn Ibrohim o‘z davrining yetuk muhaddislardan bo‘lib, Imom Molikning shogirdi va as’hoblaridan sanalgan. Manbalarda uning Hammod ibn Zayd, Imom Molik ibn Anas va Abu Muoviya kabi yirik muhaddislardan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn Muborakning suhbatida bo‘lib, u zotdan tarbiya topgani haqidagi ma’lumotlar qayd etilgan. Ahmad ibn Hafs, Nasr ibn Husayn kabi iroqlik bir qancha olimlar uning shogirdlaridan bo‘lgan. Alloma Ismoil

ilm olish va uni tarqatish bilan bir qatorda tijorat ishlari bilan ham shug‘ullanganlar. Manbalarda zikr qilinishicha, Ismoil Buxoriy o‘ta taqvodor, xudojo‘y, odil inson bo‘lganlar. Tarixchi Ahiyd ibn Hafs: “Abu Muhammad (Imom Buxoriyning otasi) bandalikni bajo keltirayotgan mahal uni ziyorat qilishga borganimda, menga: “Bor molu dunyoimdan na harom yo‘l bilan, na shubhali, nopol yo‘l bilan topilgan bir dirhamni ham bilmayman”, deb iltijo qilganida nafasim bo‘g‘ilib, bor vujudim uning ulug‘vorligi oldida arzimas bir narsadek tuyuldi,” deb yozgan. Buyuk shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy ham “Batho (Makka atrofidagi tepaliklar nomi) va Yasrib (Madina)da yasalgan tanganing sayqali Buxoroda kamoliga yetdi” degan so‘zлари orqали mana shunday taqvo va ilm bilan ziynatlangan nasab ortidan Buxoroi sharifda buyuk muhaddis Imom Buxoriyning yetishib chiqqaniga ishora qiladi. Buyuk muhaddisning onasi ham taqvodor, diyonatli va oqila ayol bo‘lganlar. U kishining asl ismi manbalarda uchramaydi, chunki taqvodorligi va ko‘p ibodat qilishi, ilmli va oqilaligi bilan tanilgani sababli el orasida asl ismi unutilib, karomat sohibasi sifatida “Duosi mustajob ayol” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Imom Buxoriyning ulug‘ alloma bo‘lib yetishishida otasining taqvosi-yu onasining ana shunday ixlos ila qilgan duo-yu ibodatlarining juda katta o‘rni bor.

Imom Buxoriy tug‘ilganlarida ota-onalari u kishiga Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning ismlarini qo‘ydilar. Oradan bir necha yil o‘tib, yosh Muhammadning otasi Ismoil vafot etadi. Imom Buxoriy to‘rt yoshlar atrofida ko‘zi jarohatlanib, ko‘rish qobiliyatini yo‘qotadi va tabiblar harchand urinishmasin, uni davolay olmaydilar.

Shu o‘rinda Imom Buxoriyning onasi timsolida buyuk jasoratni hamda boshqa ayollarga yuksak namuna bo‘ladigan ulkan bir matonat namoyon bo‘ladi. Ham turmush o‘rtog‘idan ayrilgan, ham farzandiga yetgan bunday musibatdan yosh Muhammadning onasi o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. Aksincha, kunduzlari o‘g‘lining ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanib, uni ilm olishga rag‘batlantirar, tunlarini ixlosu ibodat bilan bedor o‘tkazib, Yaratgandan o‘g‘lining ko‘z nurini qaytarishni tinmay iltijo qilib so‘rar edi.

Darhaqiqat, ota-bobolarimiz “Ona farzand uchun eng birinchi va oliy madrasadir”, deb to‘g‘ri aytganlar. Oqila ayolning tarbiyasi bilan ko‘zi ojiz bo‘lishiga qaramasdan yosh Muhammadning ilmga, ayniqsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning muborak hadislarini yod olishga rag‘bati kundan kun oshib bordi.

Kunlardan bir kuni onasi tushida Ibrohim alayhissalomni ko‘radi. U zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: “Ey volida! Sening behisob duolaring sharofatidan Alloh taolo o‘g‘lingga mukammal ko‘rish qobiliyatini qaytardi”, deya xushxabar aytadi. Uyqudan uyg‘onib, o‘g‘lining qaroqlarida nur jilvalanib, ko‘zlariga olam qaytadan nurafshon bo‘lib turganini ko‘radi. Oqila ona Alloh taologa shukrona ibodatini qilib, farzandi haqqiga uzundan uzun duolar qilib tong ottiradi.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, ulug‘ donishmandlarimiz: “Har bir buyuk inson ortida bir ayol bor”, deb bejiz aytmaganlar. Darhaqiqat, Imom Buxoriyning buyuk alloma bo‘lib yetishishida validai mehribonining boshqa onalarga namuna bo‘ladigan darajadagi buyuk xizmatini alohida e’tirof etmoq va ismidan sifati mashhur bo‘lib ketgan bu muhtarama Ayolning hayot yo‘lini bugungi kun onalariga ibrat qilib ko‘rsatmog‘imiz lozim. [2]

Muqaddas dinimiz ta’limoti asosida ta’lim-tarbiyani ibodat darajasidagi amal deb bilgan bir onaning beqiyos xizmati sababli bugun butun olam musulmonlari Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning muborak hadislaridan, eng sahih rivoyatlardan bahramand bo‘lib kelmoqda. Bir zabardast, fidoyi ona sababli yetishib chiqqan Imom Buxoriydek farzandning qoldirgan bebaho 20 dan ortiq asarlari asrlar osha, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Alalkusus, bu muhaddis allomaning “Al-Jomi” as-sahih” hadis to‘plami butun dunyo musulmonlari tomonidan hadis ilmi sohasida eng muhim manba sifatida e’tirof etilgan.

Ota-onaning farzandlariga beradigan narsalari ichida eng qimmatlisi odob hisoblanadi. **Said ibn Oss (r.a.)dan rivoyat qilinadi. “Rasululloh (s.a.v.): “Hech bir ota o‘z farzandiga yaxshi odob o‘rgatishdan ortiq hadiya qila olmaydi”, dedilar. (Termiziy rivoyati) [4; 360-b.].**

Farzandlarimiz Imom Buxoriydek bo‘lishlari uchun ayollarimiz ham u kishining onalaridek bo‘lishlari kerak. Oilada erkak kishi oila uy-ro‘zg‘or tashvishi bilan rizq terib yurganda farzandlar bilan qoladigan va ularning tarbiyasi bilan ko‘proq shug‘ullanadigan uning onasi emasmi? Shunday holatlarda uyda qolgan ona ilmli bo‘lsa-yu bolalariga kitob o‘qib, hadislar o‘qib, Qur’on tilovat qilib bersa, farzandlarini kitobga muhabbatli qilib tarbiyalasa, bizning farzandlarimiz ham Imom Buxoriy singari olim bo‘lib yetishmaydimi? Albatta, bo‘ladi. Ona qornidan Qur’on tilovatini tinglab, hadislar eshitib

ulg‘aygan bola dunyoga kelib, onaning ko‘krak sutini Qur’on tilovati bilan birga qo‘sib emar ekan bizning farzandlarimiz ham Imom Buxoriy singari olim-u ulamolardan bo‘lib yetishadi inshaAlloh. Ayniqsa, Payg‘ambarimiz alayhissalomning hadislarini bilishlari, Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy”sini o‘qigan, undan kerakli ilmlarni o‘rganib, Allohnинг kalomidan o‘qib, undagi oyatlar mazmunini tushunib, Allohnинг bizga bergen barcha in’omlarini, ehsonlarini qabul qilib olishi kerak. Shundagina kelajakda bu insonlardan yaxshi insonlar chiqadi. Shunday ekan ayollarni ilmli bo‘lishini ham ta’minlab beraylik. Tarbiya ona qornidan boshlanadi. Ona insonning eng birinchi murabbiysidir. Shunday ekan farzandlarimizning birinchi murabbiysi bo‘lgan onalar ilmli bo‘lishi shart.

Biz farzandlarimizni qo‘pollik, bag‘ritoshlik, dag‘allik bilan tarbiyalamasligimiz lozim. Bir bolani tarbiyalab ulg‘aytirishda uni uy-joy bilan ta’minalash, qornini to‘ydirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Balki uning aqliy va ruhiy dunyosini ilm va ma’rifat bilan boyitishimiz kerak bo‘ladi.

**Anas ibn Molik (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.)**  
**“Farzandlaringizni hurmatlang va ularning odobini go‘zal qiling”, dedilar.** (Ibn Moja rivoyat qilgan) [4;161-b.]

**“Har bir kishi kasb-korni mukkamal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq, odob, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak”** – deydi, Abu Nasr Farobiy [5; 6-b.]

Demak, oilada farzand tarbiyasi asosiy o‘rindagi vazifamiz hisoblanar ekan. Biz farzanlarimizni qori qilishni xohlasak, ahli ayolimizni qur’onga da’vat qilaylik. Ahli ilmga kelib, “farzandimni duo qiling qori bo‘lsin”, deymiz, lekin onaning besh vaqt namozida nuqsoni bo‘lsa, tutadigan ro‘zasida subuti bo‘lmasa, u ona ko‘proq Qur’on emas qo‘sish eshitadigan bo‘lsa, Alloh asrasin, ko‘proq g‘iybat qiladigan bo‘lsa, undan tug‘iladigan boladan qanday qori bo‘lishini kutasiz? Bu farzand ona qornida bo‘lganida onadan oziqlansa, onaning taqvosi achinarli holda bo‘lsa, bu onadan qorilar dunyoga kelmaydi. Shuning uchun ahli ayolimizning taqvosi o‘zimiznikidan ham chiroyliroq bo‘lishi kerak. Bunga e’tibor bersak, tug‘iladigan farzandlar Allohnинг marhamati bilan qori bo‘lib tug‘iladi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirib o‘tganimizdek Imam Buxoriy hazratlarining shu darajaga erishishlariga ota-onalarining roli beqiyos ekan. Farzandlarimizning ilmini, e’tiqodini chiroyli bo‘lishi va haqiqiy Allohdan qo‘rqadigan, Payg‘ambar alayhissalomga itoat qiladigan, payg‘ambar alayhissalomni sevadigan, go‘zal xulqli inson bo‘lib yetishishi uchun avvalam bor onalar ilmli bo‘lishi kerak ekan. Biz ham farzandlarimiz tarbiyasiga juda e’tiborli bo‘lib ularning haqlariga duolar qilib ularni Allohga, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga, Qur’onga, Allohning ibodatiga, hadislarga, diniy va dunyoviy ilmlarga bo‘lgan muhabbatini oshirishimiz lozim bo‘ladi. Farzand tarbiyasi e’tiborli masala hisoblanadi. Hech bir tarixda qolgan ayol mazzali ovqat pishirib, uyni chiroyli qilib tozalab qo‘ygani uchun eslanmaydi. Barchasi ilm sababli tarbiya qilgan farzandi, donoligi sabab qilgan qarorlari va turmush o‘rtog‘i dinining yarimi bo‘lganligi uchun eslanadi. Hozirgi kunda ba’zi ayollarimiz ilmsiz bo‘lib turmushga chiqmoqda. Ulardan tug‘ilgan farzandlar ham ilmsiz bo‘lib maktabga chiqmoqdalar. Maktabni ham din ilmidan bexabar tugatib, chet ellarga chiqib ketmoqdalar. Natijada chet elda ekstremizm va terorizm kabi yod g‘oyalarga ergashib ketish kabi ko‘ngilsiz holatlar yuzaga kelmoqda. Bunday ko‘ngilsiz holatlar kelib chiqmasligi uchun hozirda davlatimiz tomonidan yaratib qo‘yilgan imtiyozlardan foydalangan holda farzandlarimizni ilmi qilishga harakat qilishimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli qarori. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. O‘zbekiston ma’rifatparvarlar jamiyat. Ikkinchis nashr. Toshkent, “O‘zbekiston”, NMIU. 2018. – 424 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 3-juz, Niyat, ixlos, ilm kitobi. – T.: “Hilol-nashr”, 2023. – 232 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: “Hilol-nashr”, 2024. – 528 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – T.: “Hilol-nashr”, 2023. – 456 b.